

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SPORTNI
RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA
VA SPORT UNIVERSITETI**

Ma’murova Laylo Komil qizi

**TAEKVONDO WT
SPORTTURIDA TOBLANGAN
QAHRAMONLAR**

badiiy qo‘llanma

**TOSHKENT
“O‘ZKITOBSAVDONASHRIYOTI
MATBA IJODIY UYI”**

2022

UO‘K:

KBK:

Tuzuvchi:

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti “Taekvondo WTF, karate WKF nazariyasi va uslubiyati” kafedrası professori. **Baek. Mun. Jong** Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti “Taekvondo va sport faoliyati” fakultet dekani pedagogika fanlari nomzodi professor.
V.Sh. Rahimov

Taekvondo wt sportturida toblangan qahramonlar / L.K. Ma‘murova: badiiy qo‘llanma – T.: “O‘ZKITOBSAVDONASHRIYOTI” NMIU 2022-152 bet.

Ushbu Badiiy qo‘llanma O‘zbekiston taekvondochilari misolida yurtimizda taekvondo WT sportining rivojlanish tarixi, musobaqalar va musobaqa ishtirokchilari, g‘olib, sovrindorlari haqidayoritib berilgan. Mazkur Badiiy qo‘llanmayoshlarni taekvondo sport turiga qiziqishini yanada oshirish maqsadida ishlab chiqilgan.

*O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti
Kengashining 2022 yil “__27__” “Avgust” 1- sonli yig‘ilishida
nashr etishga ruxsat etildi.*

UO‘K: _____

KBK: _____

ISBN: 978-9943- _____ -__-__ ©L.K. Ma‘murova, 2022

© “O‘ZKITOBSAVDONASHRIYOTI” NMIU, 2022

O'zbekiston Taekvondo WT Assotsiatsiyasi haqida



Taekvondo sharq yakkakurash san'atining eng qadimgi turlaridan biri hisoblanib, “qo'l va oyoq bilan harakat qilish» san'ati ma'nosini anglatadi. Tarixiy manbalardan yaxshi ma'lumki, taekvondo san'ati xuddi Xitoyda kung-fu hamda Yaponiyada karate singari Koreya yarim orollarida mustaqil tarzda shakllangan.

Qadimgi Koreyada “subak” harbiy san'ati mavjud bo'lgan. Aynan subak kurashi taekvondoning ildizi hisoblanadi. Subak kurashi ayniqsa, 1147-1170 yillarda shoh Uyong hukmdorlik yillari keng rivojlangan. O'sha paytda subak kurashi qonun-qoidalari shakllangan kitob nashr etilgach, mazkur harbiy sport turiga oddiy aholi o'rtasida ham qiziqish kuchaygan.

Bugungi kunga kelib, dunyoda taekvondoning WT hamda ITF yo'nalishlari mavjud. Butunjahon taekvondo federatsiyasiga 1973 yilda asos solingan bo'lib, ayni paytda katta mavqega ega ushbu tashkilotga dunyoning 206 mamlakati a'zo hisoblanadi. 1979 yil taekvondoning WT yo'nalishi xalqaro Olimpiya qo'mitasi tomonidan tan olindi. Sidneyda bo'lib o'tgan XXVII yozgi Olimpiya o'yinlarida taekvondo ilk marotaba dasturdan joy egalladi. O'zbekiston taekvondo WT assotsiatsiyasi 1993 yil 6 avgustda ta'sis etilgan va shu yilning o'zida Butunjahon taekvondo federatsiyasiga a'zo bo'ldi.

1996 yildan Osiyo ittifoqiga a'zo. Butunjahon taekvondo federatsiyasining to'laqonli a'zosi sifatida O'zbekiston taekvondochilari jahon chempionati bahslari va turli xalqaro turnirlarga yuboradi. Assotsiatsiyaning asosiy maqsadi – O'zbekistonda ushbu sport turini rivojlantirish, targ'ib qilish va ommalashtirishga qaratilgan bo'lib, o'z a'zolari huquq va manfaatlarini himoya qiladi.

1989 yil **Adik Li** O'zbekiston taekvondosiga asos soldi va uni mamlakatimizda ommaviylashtirish harakatiga rahbarlik qildi. Seulda joylashgan KUKKIVON akademiyasida O'zbekistonlik mutaxassislar Adik Li, Oleg Pyak va Aleksey Kan ilk bor o'qish baxtiga muayassar bo'lishdi. O'sha paytda mamlakatimizda 900 nafar sportchi taekvondo bilan shug'ullanar edi. 1992 yil O'zbekiston taekvondo federatsiyasi rasman ish boshladi.

Adik Li federatsiya rahbari etib tayinlandi, Oleg Pyak esa bosh kotib lavozimida faoliyat yurita boshladi. Oradan biroz muddat o'tib, 1992 yilning oxirlarida Abbos Latipov federatsiya rahbarligiga kirishadi va 2008 yilgacha assotsiatsiyani boshqardi.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston taekvondo ustalari kyorugi bahslarida Osiyo va jahon birinchiliklari, Osiyo va Olimpiada o'yinlarida muntazam ravishda ishtirok etib kelishmoqda. So'nggi yillarda qo'lga kiritilgan yutuqlarga nazar tashlashning o'zi kifoya.

Misol uchun, 2001 yil Janubiy Koreyaning Jedju shahrida o'tgan jahon chempionatida terma jamoa a'zosi Eduard Xegay -58 kg vaznda kumush medalga sazovor bo'ldi. 2011 yil Janubiy Koreyaning Genju shahrida o'tkazilgan jahon chempionatida uning natijasini takrorlagan Akmal Ergashev +87 kg vaznda shohsupaning ikkinchi pog'onasidan joy egalladi.



2008 yil “Beejing olimpiadasi” Akmal Ergashev

2010 yil Poytaxtimiz taekvondo “Pumse” bo’yicha V jahon chempionatiga mezbonlik qilgandi. Yuqori saviyada tashkil etilgan nufuzli musobaqada terma jamoamiz a’zolari ikkitadan kumush va bronza medalni qo’lga kiritdi.

2013 yil Avgustda Xitoyning Nankin shahrida o’tkazilgan o’smirlar o’rtasidagi II Osiyo o’yinlarida qatnashgan ikki sportchimiz – 62 kilogramm vazn toifasida G’anijon Hurliboyev va 55 kilogramm vaznda qizlar musobaqasida Dinoraxon Mamadibrohimova uchinchi o’rinni egalladi.

2014 yil 25-28 may kunlari “O’zbekiston” sport majmuasida XXI qit’a chempionati va “Pumse” bo’yicha III Osiyo chempionati o’tkazildi. Musobaqalarda qit’amizning o’ttizdan ziyod mamlakatidan 400 nafarga yaqin sportchi g’oliblik uchun kuch sinashdi. “Pumse” – taekvondoning WT yo’nalishidagi kompleks mashqlardir. U sportchining o’z tanasini chiniqtirishi, hujum va himoya harakatlarini takomillashtirishi, jismoniy va ruhiy tayyorgarligini muntazam oshirishiga xizmat qiladigan muhim vosita. Musobaqaning “Pumse” bahslarida munosib ishtirok etgan hamyurtlarimiz faxriylar, o’smirlar va kattalar o’rtasidagi bahslarda ikkita oltin va yettita bronza medalni qo’lga kiritib, umumjamoa hisobida uchinchi o’rinni egalladi.

Ular o’tgan davr ichida ham Pumse terma jamoasi bosh murabbiyi Aleksandr Ni boshchiligida bir nechta xalqaro musobaqalarda ishtirok etib, sovrinli o’rinlarni qo’lga kiritib kelayotganini ta’kidlab o’tish lozim.

XXI Osiyo chempionatida ishtirok etgan Jasur Boyqo’ziyev va Dmitriy Shokin o’z vazn toifasida barcha raqiblarini mag’lubiyatga uchratib, shohsupaning eng yuqori pog’onasidan joy oldi. Hamyurtlarimizdan Nikita Rafalovich va Maksim Rafalovich bronza medalni qo’lga kiritdi.

Xotin-qizlar o’rtasidagi bellashuvlarda qatnashgan iqtidorli sportchimiz Umida Abdullayeva 73 kilogrammgacha bo’lgan taekvondochilar bahsida oltin medalni qo’lga kiritdi. Yana bir

tajribali sportchimiz Natalya Mamatova o'z vazn toifasida bronza medal bilan taqdirlandi. 2014 yilning 16-28 avgust kunlari Xitoyning Nankin shahrida o'tkazilgan o'smirlar o'rtasidagi II Olimpiya o'yinlarida hamyurtimiz Umida Abdullayeva vazni 63 kilogrammdan og'ir bo'lgan taekvondochilar o'rtasida ikkinchi o'rinni egalladi.



2014 yil 25-28 may kunlari XXI Osiyo chempionatida g'olib bo'lan sportchilar. (Jasur Boyqo'ziyev, Umida Abdullayeva, Dmitriy Shokin)

2015 yilda Kadetlar o'rtasidagi Jahon chempionati Janubiy Koreyaning Muju shahri mezbonlik qilgan. Bu safar sportchilari-miz yurtimizga ikkita bronza medali bilan qaytishgan. -33 kg vazn toifasida Jasurbek Zokirov va +65 kg vazn toifasida Islomjon Adhamov O'zbekiston terma jamoasiga medallar keltirishgan.

O'zbek taekvondochilarimizning faxri bo'lgan Baykuziyev Jasur - O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sportchi, o'n karra O'zbekiston chempioni, 2015-yildagi Jahon chempionatining kumush medali sovrindori, 2014-yildagi Osiyo chempionatining oltin medali sovrindori, 2012 va 2018-yillardagi Osiyo chempionatining kumush medali sovrindori, 2016-yildagi Osiyo chempionatining bronza medali sovrindori o'zining Taekvondoagi mahoratini murabbiylik sohasida ham amalda

qo'llab, kelajak avlodga yetuk sportchilarni tayyorlashdan charchamayapti.

2019 yil fevral oyida Terma jamoa Antaliya (Turkiya) "Prezident Kubogi Evropa mintaqasi" G-2 va "Turkiya ochiq" G-1 xalqaro turnirlarida O'zbekiston erkaklar va ayollar jamoasi ishtirok etishdi. 12 fevral, - "Prezident Kubogi Evropa mintaqasi" xalqaro turnirining Rafalovich Nikita 74kg kumush medali sovrindori, Xegay Valentin 54kg bronza medali sovrindori bo'ldi.

Musobaqalarni navbatdagisi 15- fevralida kattalar o'rtasidagi "Turkish Open" xalqaro turnirida Rafalovich Nikita-74 kg vazn toifasida oltin medal, Tursunkulova Nigora -67kg vazn toifasida oltin medal, Mannopova Madinabonu -49kg vazn toifasida oltin medal, Osipova Svetlana - +73kg vazn toifasida oltin medal, Azimov Davron-87kg vazn toifasida oltin medal, Salaev Shuxrat-80 kg vazn toifasida bronza medal, Abdullayev Bahrom-54 kg vazn toifasida kumush medal, Xegay Valentin-54 kg vazn toifasida bronza medal, o'smirlar o'rtasidagi "Turkish Open" xalqaro turnirida Turaev Amir-48kg vazn toifasida oltin medallarni qo'lga kiritib qaytishdi.



2019 yil fevral oyida Antaliya (Turkiya) "Prezident Kubogi Evropa mintaqasi" G-2 va "Turkiya ochiq" G-1 xalqaro turnirlarida ishtiroki

2019 yilning 25-fevralida O'zbekiston terma jamoasi Kish (Eron) "Fajr Open" G-1 va "President's Cup Asian region" G-2 xalqaro turnirlarida qatnashish uchun yo'l oldi. Musobaqaning birinchi kunidayoq terma jamoamiz ayollari tarkibidan Svetlana Osipova +73 kg vazn toifasida "President's Cup Asian region" xalqaro turniri g'olibasiga aylanib yurtimiz madhiyamizni baralla yangrashi bilan, jamoa a'zolariga yanada ishonch va xursandchilik bag'ishladi. G'alabalar bir biga ulanib, Kayumova Charos -53 kg vazn toifasida kumush medal, Rafalovich Nikita -74 kg vazn toifasida bronza medal, Sadikova Feruza -62 kg vazn toifasida bronza medal, Mannopova Madinabonu -49 kg vazn toifasida bronza medallarni qo'lga kiritib, turnirining ayollar o'rtasidagi umum-jamoaviy hisobida O'zbekiston terma jamoasi uchinchi o'rinni egalladi. Erkaklar terma jamoasi a'zolaridan Rafalovich Nikita 74 kg vazn toifasida "President's Cup Asian region" xalqaro turnirining bronza medali sovrindori bo'ldi.



2019 yilning 25-fevralida O'zbekiston terma jamoasining Kish (Eron) "President's Cup Asian region" xalqaro turniridagi ishtiroki.

2019 yilning 5-martidagi Kish (Eron) "Fajr Open" xalqaro turnirida O'zbekiston terma jamoasining a'zolari tarkibidan Kayumova Charos -53 kg vazn toifasida g'oliblikni qo'lga kiritdi

va ushbu turnirning "eng yaxshi sportchisi" unvoni sohibasiga aylandi. G'alabalar shodasi navbatdagi chempionni taqdim etdi va Tursunkulova Nigora -67 kg vazn toifasida turnir g'olibiga aylandi. Shular safida Sadikova Feruza ham -62 kg vazn toifasida navbatdagi g'oliblik shohsupasidan joy oldi. Osipova Svetlana + 73kg vazn toifasida kumush medal, Mannopova Madinabonu - 49kg vazn toifasida kumush medal, Rafalovich Nikita-74 kg vazn toifasida bronza medal, Xegay Valentin-54 kg vazn toifasida bronza medal, Salaev Shuxrat-80 kg vazn toifasida kumush medal, Rafalovich Maksim-80 kg vazn toifasida bronza medallarni qo'lga kiritib yorug' yuz bilan yurtimizga qaytishdi.



**2019 yilning 5-mart Kish (Eron) "Fajr Open" xalqaro
turniridagi ishtiroki.**

Sportchilarimiz o'z ustida tinimsiz mehnat qilib, dunyoning yetakchi davlatlari Taekvondo WT milliy terma jamoa a'zolari bilan hamkorlikda o'quv yig'in mashg'ulotlarini tinimsiz olib bordilar. Jumladan 2019-yilning 16-27 aprel kunlari orasida Terma jamoa sportchilari Buyuk Britaniya, Germaniya va Fransiya jamoalari bilan qo'shma o'quv- yig'in mashg'ulotida, keyingi musobaqalar uchun o'z texnik-taktik tayorgarliklarini yanada oshirib borishdi.



2019-yilning 16-27 aprel kunlari orasida Terma jamoa sportchilari Buyuk Britaniya, Germaniya va Fransiya jamoalari bilan qo'shma o'quv-yig'in mashg'ulotida

Sportchining hayoti jahongashtaligi bilan hamda vatanparvarlik ruhidagi mehnatlari bilan boshqa kasb vakillaridan tubdan ajralib turishadi. O'zbekiston Milliy Olimpiya qo'mitasi prezidenti Umid Ahmadjonov O'zbekiston taekvondo assotsiatsiyasida Buyuk Britaniyaning Manchester shahrida taekvondo bo'yicha kattalar o'rtasida jahon chempionatida ishtirok etuvchi sportchi va murabbiylarimiz bilan uchrashuv o'tkazib, musobaqada sovrindor bo'lgan sportchilarga MOQ alohida pul mukofoti berishini va'da qildi. Oltin medal egasiga 30 ming, kumush medal sohibiga 20 ming va uchinchi o'rin egasiga 10 ming AQSh dollari miqdorida pul mukofoti beriladi deb sportchilarga yanada kuchliroq motivatsiya berib musobaqaga kuzatdilar.



2019 yil 15-19 may kunlarida bo'lib o'tadigan jahon chempionatiga tayyorgarlik

2019 yil 15-19 may kunlarida bo'lib o'tadigan jahon chempionatida ishtirok etish taekvondochilarimiz uchun Manchesterga yo'l olishdi. Mazkur jahon chempionatida 12 nafar taekvondochimiz yurtimiz sharafini himoya qilishdi. Ammo musobaqaning birinchi kunidanoq sportchilarimiz janglarni boy berib boshladilar. Musobaqa yakunida jamoa tomonidan birorta ham medal qo'lga kiritilmay, alamli mag'lubiyatni his etishdi. Bunday natijaning asosiy sabablaridan biri etib, musobaqa yangi qonun qoidalar asosida tashkil etilgani va bizning sportchilar bu o'zgarishlarga to'liq tayyor emasliklari oydinlashdi.

Sportchilarimiz o'zlariga kerakli xulosalarni chiqarib, o'z imkoniyatlarini yanada oshirishga bor kuch g'ayratini ishga soldilar. Milliy terma jamoa murabbiylari ham o'zlarining tayyorgarlik strategiyasini jahon talabiga javob beradigan mukammal metodikalar bilan boyitishda bel bog'ladilar.

Natijada 2019 yil 12- iyulda Neapol (Italiya)shahrida bo'lib o'tgan XXX yozgi Universiada musobaqasida Terma jamoa a'zolaridan O'zbekiston Davlat Jismoniy tarbiya va sport universiteti talabasi Pulatov Niyaz -63 kg vazn toifasida Xorvatiya, Ispaniya, Turkiya va Xitoydan kelgan sportchilar ustidan g'alaba qozonib kumush medalni jamoamizga tuhfa etdi. Niyaz Pulatovning ushbu g'alabasi O'zbekiston prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan va O'zbekiston MOQ raisi tomonidan ham munosib baholanib, barcha universiada g'olib va sovrindorlari qatorida rag'batlantirildi.

Yurtimizda sportga berilayotgan bunda e'tib va e'tiroflar, vatanimiz yoshlarini sportga bo'lgan qiziqishlarini yanada orttirib, yosh avlodlar qalbida chempionlik hissiga muhabbatini oshirdi.



2019 yil O'zDJTSU talabasi Pulatov Niyaz XXX yozgi Universiada musobaqasi kumush medali sohibi.

Bir vaqtning o'zida 2019 yil 4-10 iyul kunlari "Chuncheon KOREA OPEN" va "Kimunyong Kubogi" xalqaro turnirlarida O'zbekiston terma jamoasi ishtirok etib, Osipova Svetlana +73kg vazn toifasida Kimunyong Kubogi G-1 xalqaro turniri g'olibi, Rajabov Shohruh +87 kg vazn toifasida kumush medal, Mannapova Madinabonu -49kg vazn toifasida bronza medal, Rafalovich Nikita -80 kg vazn toifasida bronza medallarni qo'lga kiritishdi.

4-10 iyulning navbatdagi Chuncheon Korea Open G-2 xalqaro turnirida esa Osipova Svetlana +73kg vazn toifasida kumush medal, Mannapova Madinabonu -49kg vazn toifasida bronza medal sohibasiga aylanishdi.



2019 yil 4-10 iyul kunlari "Chuncheon KOREA OPEN"

16-iyul kuni Iordaniya poytaxti Amman shahrida Osiyo taekvondo kengashining Bosh assambleyasi doirasida O'zbekiston taekvondo assotsiatsiyasi raisi Sherzod Tashmatov hamda Osiyo taekvondo kengashi prezidenti Kyu Seok Lining uchrashuvi tashkil etildi. Ushbu uchrashuvda Osiyo taekvondo kengashi prezidenti Italiyada o'tgan butunjahon universiada hamda Koreya respublikasidagi "Chuncheon Korea Open" va "Kimunhyong Cup" ochiq turnirlarida o'zbek sportchilari ko'rsatgan yuqori natijalarni e'tirof etib, "Jahon taekvondosida O'zbekiston ham o'z o'rnini egallab borayotganidan quvonaman" deb samimiy fikrlarini ochiq bayon etdi.



2019 yil 16-iyul kuni O'zbekiston taekvondo assotsiatsiyasi raisi Sherzod Tashmatov hamda Osiyo taekvondo kengashi prezidenti Kyu Seok Lining uchrashuvi

Bu kabi e'tirofga sazovor bo'lgan O'zbek taekvondochilarimiz, oldilarida turgan nufuzli musobaqalarga tayyorgarlik haqida o'ylardilar.

2019 yil 21-22 iyul kunlari Iordaniya poytaxti Amman shahrida taekvondo bo'yicha o'smirlar o'rtasida X Osiyo chempionati bo'lib o'tdi, unda turli vazn toifalarida 18 nafar o'zbek sportchilari ishtirok etadi. O'smirlar o'rtasidagi X Osiyo chempionatida Rashitov Ulug'bek - 55kg vazn toifasida oltin medal, Joysunov Jasur - 68kg vazn toifasida oltin medal, O'ktamov Azizjon - 48kg vazn toifasida kumush medal, Hamidullayev Abdulaziz - 63kg vazn toifasida bronza medal, Mavlonov Marat - 78kg vazn toifasida bronza medal, Sadikova Feruza - 63kg vazn toifasida bronza medal, Sobirjonov Ozoda - 55kg vazn toifasida bronza medal sovrindori bo'lib, O'zbekiston terma jamoasi 2 ta oltin, 1 ta kumush va 4 ta bronza medalini qo'lga kiritdi, bu esa terma jamoaning Osiyo chempionatidagi chiqishlari tarixidagi eng yaxshi natijadir.

Ko'rsatilgan natijalar yoshlarni tayyorlash strategiyasining to'g'riligini isbotladi va milliy terma jamoaning ajoyib zaxirasiga egaligini ko'rsatdi.



2019 yil 21-22 iyul kunlari Iordaniya poytaxti Amman shahrida taekvondo bo'yicha o'smirlar o'rtasida X Osiyo chempionati

2019 yil 24 iyul kuni O'zbekiston Taekwondo WT Assotsiatsiyasining "Universal sport saroyi"da shu yilning 7-10 avgust kunlari kadetlar o'rtasida o'tkaziladigan Jahon Chempionatiga tayyorgarlik ko'rish yuzasidan kengaytirilgan yig'ilish bo'lib o'tdi.

Mazkur yig'ilishni O'zbekiston Milliy Olimpiya qo'mitasi prezidenti Shaabduraxmanov Rustam Mavzurovich olib bordi. Shuningdek, majlisga O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirining birinchi o'rinbosari Kasimov Oybek Omilovich, O'zbekiston Milliy Olimpiya qo'mitasi vitse prezidenti Kamilov Azizjon Yakubdjanovich va boshqa ko'plab mutasaddi tashkilot xodimlari ishtirokida bo'lib o'tdi. O'zbekiston Milliy Olimpiya qo'mitasi prezidenti R.Shaabduraxmanov birma-bir chempionatni tashkillashtirish uchun biriktirilgan mutasaddi tashkilotning xodimlari bilan tanishdi. Assotsiatsiya raisi Sherzod Tashmatov Jahon Chempionatiga mezbonlik qilish uchun barcha amalga oshiriladigan ishlar yuzasidan muhokama o'tkazildi.



2019 yilning 7-10 avgust kunlari kadetlar o'rtasida o'tkaziladigan Jahon Chempionatiga tayyorgarlik ko'rish yuzasidan kengaytirilgan yig'ilish

2019 yil 25-27 iyul kunlari Iordaniyaning poytaxti Amman shahrida bo'lib o'tgan "El-Xassan kubogida" xalqaro musobaqada to'rt nafar sportchidan, iborat taekvondo WT bo'yicha O'zbekiston milliy terma jamoasi a'zolari ishtirok etdilar. Jami 45 ta mamlakatdan 100 ta sportchidan ortiq qatnashgan ushbu musobaqalarda terma jamoa a'zolari jami 4 ta medallarni, shundan 2 ta kumush, va 2 ta bronza medallarini qo'lga kiritishti. Erkaklar o'rtasida +87 kg vazn toifasida Radjabov Shoxrux bronza medal, -80 kg vazn toifasida Rafalovich Nikita bronza medali sohibi, ayollar o'rtasida +73 kg vazn toifasida Osipova Svetlana kumush medal, -67 kg vazn toifasida Tursunkulova Nigora kumush medali sohiblariga aylandilar.



2019 yil 25-27 iyul kunlari Iordaniya (Amman) "El-Xassan kubogida" xalqaro musobaqasi ishtirokchilari.


2019 yilning 7-10 avgust kunlari jahonning eng kuchli kadetlari Toshkentda jam bo'lishdi. 67 mamlakatdan kelgan 850dan ziyod sportchi va murabbiylar hisob bo'yicha IV Jahon chempionatida g'oliblik uchun kurash olib borishdi. Ushbu nufuzli musobaqada O'zbekiston sharafini 20 nafar taekvondochi himoya qildi.

Musobaqada Butunjahon taekvondo federatsiyasi prezidenti Chungvon Choy ham tashrif buyurdi. Martabali mehmon Islom Karimov nomidagi Toshkent xalqaro aeroportida kutib olindi va o'sha yerning o'zida OAV xodimlariga qisqa intervyu berdi. U o'z intervyusida shunday dedi,- "Bundan ikki yil oldin O'zbekistonga tashrif buyurgandim. Bu safar kadetlar o'rtasidagi jahon chempionati sabab mamlakatingizga keldim. Bu yerda jahon chempionatini yuqori saviyada tashkil etish uchun juda yaxshi tayyorgarlik olib borilgani ko'rinib turibdi. Avvalgi tashrifim davomida Toshkentda "Prezident kubogi"ni tashkil etgandik, shuningdek yana bir qator musobaqalarni o'tkazganmiz. Jahon chempionatidek nufuzli musobaqalarni o'tkazish uchun O'zbekistonda moddiy-texnik baza imkoniyatlari yetarli. Eng asosiysi Respublika Prezidenti janob Shavkat Mirziyoyev shaxsan ushbu sport turiga qiziqadilar. Shu sababdan ham mazkur chempionatni O'zbekistonga ishonib topshirdik. Umid qilamanki, ushbu musobaqa O'zbekiston uchun oldinda turgan nufuzli musobaqalar, jumladan Tokio 2020 Olimpiadasiga muvaffaqiyatli natija qayd etish yo'lida ahamiyatga ega bo'ladi", - deya, Butunjahon taekvondo federatsiyasi prezidenti Chungvon Choy o'z intervyusini yakunladilar.



2019 yil 6-avgust. Butunjahon taekvondo federatsiyasi prezidenti Chungvon Choy O'zbekistonga tashrifi.

Musobaqa shiddatli jangler bilan boshlandi.-29 kg vazn toifasida taekvondochimiz Shabona Abduvaliyeva turkiyalik Xayrunnisa Gurbuzga qarshi dayanga chiqdi. Juda qiziqarli va shiddatli o'tgan jangda Turkiyalik sportchi 36-32 hisobida g'alaba qozondi va chorak finalga yo'l oldi.



2019 yil 7-10 avgust Kadetlar o'rtasidagi IV Jahon chempionati. Shabona Abduvaliyeva

Musobaqaning birinchi kunida sportchilarimiz ketma-ket mag'lubiyatga uchrab borishdi.

-65 kg vazn toifasida taekvondochimiz Abdulaziz Akramov Serbiyalik Dmitriye Ajdkovichga qarshi dayanga chiqdi. Afsuski bu jangda ham serbiyalik sportchi 25-12 hisobida g'alaba qozondi va chorak finalga yo'l oldi.




2019 yil 7-10 avgust Kadetlar o'rtasidagi IV Jahon chempionati. Abdulaziz Akramov

-33 kg vazn toifasida taekvondochimiz Aynur Umirzakova Tailandlik Natkamon Vassanaga qarshi jang qildi. Keskin o'tgan bahsda Tailandlik taekvondochi 11-4 hisobida g'alaba qozondi va chorak finalga yo'l oldi. Aynur uchun bu mag'lubiyat alamli bo'ldi. Sportchimizga nufuzli musobaqalar tajribasi yetishmadi xolos.



**2019 yil 7-10 avgust Kadetlar o'rtasidagi IV
Jahon chempionati. Aynur Umirzakova**

+65 kg vazn toifasida taekvondochimiz Mahsud Maratov nimchorak finalda Meksikalik Xuan Karlos Martines Ayala bilan to'qnash keldi. Jangda Meksikalik taekvondochi 25-15 hisobida g'alaba qozonib chorak finalga chiqdi.



**2019 yil 7-10 avgust Kadetlar o'rtasidagi IV
Jahon chempionati. Mahsud Maratov**

Sportchilarimiz alamli mag'lubiyatdan tushkunlikka tusha boshlaganida birdaniga vaziyat o'g'lana boshladi.


-51 kg vazn toifasida taekvondochimiz Mubina Ma'murjonova nimchorak finalda Sofiya Liubich bilan jang qildi. Bahs tugashiga 10 soniya qolganida hisob 18:18 edi. So'nggi soniyalarda Mubina bir ochko oldi va chorak finalga yo'l oldi. Mubinaning ushbu g'abasini butun O'zbekiston ahli kutib turgan edi. Sportchilarimizni ruhiyati bir muncha yaxshilandi.



2019 yil 7-10 avgust Kadetlar o'rtasidagi IV Jahon chempionati. Mubina Ma'murjonova

-51 kg vazn toifasida taekvondochimiz Mubina Ma'murjonova chorak finalda Andorralik Entso Alberola bilan jang qildi. Afsuski bahsda Andorralik taekvondochi 27:10 hisobida g'alaba qozondi va yarim finalga yo'l oldi.

Jahon chempionatining ikkinchi kuni g'alaba bilan boshlandi. -37 kg vazn toifasida yurtimiz sharafiga himoya qilayotgan Abror O'lmasov Jahon chempionatini 1/32 finalda Qirg'izistonlik Yaroslav Romanovga qarshi bahs bilan boshladi. Unda Abror raqibiga hech qanday imkoniyat qoldirmadi va 33:3 hisobida g'alabaga erishib keyingi bosqichga chiqdi.



2019 yil 7-10 avgust Kadetlar o'rtasidagi IV Jahon chempionati. Abror O'lmasov

G'alabalarning navbatdagisi -33 kg vazn toifasida hamyurtimiz Muhammadamin Aliyev tomonidan 1/16 finalda Britaniyalik Ouyen Blantga qarshi dayanga chiqdi. Muhammadamin raqibining bosh qismiga 4 marta zarba berdi va 23:2 hisobida g'alabaga erishdi. Muhammadamin shiddatli jangi bilan tomoshabinlarning ham e'tiborini o'ziga tortdi.

Muhammadamin musobaqaning nimchorak finalida Filippinlik Xulio Migel Sapataga qarshi jang qildi. Jangning birinchi raundidan ustunlikni o'z qo'lga olgan O'zbekistonlik taekvondochi yakunda 23:3 hisobida zafar quchib chorak finalga yo'llanma oldi! Muhammadamin Aliyev chorak finalda Shvetsiyalik Ademi Bleronga qarshi jang qildi. Keskin o'tgan bellashuvda hamyurtimiz 17:5 hisobida g'alaba qozondi va yarim finalga yo'llanma oldi. Muhammadamin Aliyev yarim finalga Ukrainalik Maksim Manenkovga qarshi jang qildi. Afsuski bahsda hamyurtimiz 17:31 hisobida yutqazib qo'ydi va bronza medaliga ega chiqdi.



2019 yil 7-10 avgust Kadetlar o'rtasidagi IV Jahon chempionati. Muhammadamin Aliyev

-41 kg vazn toifasida O'zbekistonlik Laylo Zayniddinova 1/8 finalda Misrlik Yana Elmanzalvi bilan jang qildi. Birinchi raundda ikkala sportchi ham ochko ololmadi. Ikkinchi va uchinchi raundda hamyurtimiz raqibiga ikkita aniq zarba berdi va 4:0 hisobida g'alabaga erishib, chorak finalga chiqdi. Laylo Zayniddinova chorak finalda Eronlik Zahro Zarin Naal Sheyخانiga qarshi jang qildi. Katta ustunlikka ega bo'lgan Eronlik sportchi yakunda 46:8 hisobida g'olib bo'ldi. Shu tariqa, hamyurtimiz o'z yurishini chorak finalda to'xtatishga majbur bo'ldi.



2019 yil 7-10 avgust Kadetlar o'rtasidagi IV Jahon chempionati. Laylo Zayniddinova

Jahon chempionatining uchinchi kuni ham g'alaba bilan boshlandi. -44 kg vaznda taekvondochimiz Marjona Xudoyqulova musobaqani 1/16 finalda Ukrainalik Oleksandra Labuzovaga qarshi jang bilan boshladi. Birinchi raundda hamyurtimiz 0:8

hisobida ortda qolayotgandi, biroq ketma-ket aniq zarbalardan so'ng hisobda oldinga o'tib oldi. Bahs tugashiga 5 soniya qolganida hisob 24:24 edi. Marjona o'zida kuch topa oldi va 28:26 hisobida zafar quchdi. Marjona nimchorak finalda Filippinlik Krisriata Katalina Tiu bilan to'qnash keldi. Qiziqarli va zarbalarga boy bo'lgan bahsda hamyurtimiz 45:24 hisobida g'alabaga erishib chorak finalga yo'llanma oldi. Marjona chorak finalda Belgiyalik Sara Chaari bilan to'qnash kelib 19:30 hisobida yutqazib qo'ydi va chorak finalga chiqa olmadi.




2019 yil 7-10 avgust Kadetlar o'rtasidagi IV Jahon chempionati. Marjona Xudoyqulova

-59 kg vazn toifasida yurtimiz sharafigini himoya qiladigan Omina Botirova 1/16 finalda Avstraliyalik Selma Xalilovich bilan to'qnash keldi. So'nggi soniyalari juda ham asabiy o'tgan bahsda 14:12 hisobida hamyurtimiz g'alabaga erishdi. Nimchorak finalda Latviyalik Anastasiya Mochalina bilan jang qildi. Afsuski bu bahsda hamyurtimiz 1:21 hisobida yutqazib musobaqani tark etdi.



2019 yil 7-10 avgust Kadetlar o'rtasidagi IV Jahon chempionati. Omina Botirova

-41 kg vazn toifasida O'zbekiston sharafiga himoya qilgan Zafarbek Karimov 1/16 finalda Ozarbayjonlik Punxan Mursalovga qarshi dayanga chiqdi. Birinchi raundda vakilimiz 11:2 hisobida zafar quchdi. Ikkinchi raunddan so'ng tabloda 15:4 hisobi porlab turardi. So'nggi raundda esa 24:4 hisobi qayd etildi va jang muddatdan avval tugab, Zafarbek foydasiga yakunlandi. Zafarbek nimchorak finalda Kanadalik Nitxan Brindamoxanga qarshi jang qildi. O'zbekistonlik taekvondochining ustunligi ostida o'tgan bahs hisobida Zafarbekning g'alabasi bilan tugadi. Zafarbek chorak finalda Isroillik Jonax Ismayelga qarshi dayanga chiqdi. Unda hamyurtimiz mutlaq ustunlikka ega bo'ldi va 20:0 hisobida g'alabaga erishdi. Yarim finalda esa Taypeylik Su I Changa qarshi dayanga chiqib, katta ustunlikka ega bo'ldi va 24:4 hisobida g'alabaga erishib finalga yo'l oldi. O'zbekiston sharafiga himoya qilayotgan Zafarbek Karimov oltin medal uchun bahsda Eronlik Amirhussayin Navro'ziga qarshi dayanga chiqdi. Zafarbek katta ustunlikka ega bo'ldi 34:14 hisobida g'alabaga erishib oltin medal sohibiga aylandi. Bu kadetlar o'rtasidagi Jahon chempionati tarixida O'zbekiston terma jamoasi qo'lga kiritgan dastlabki oltin medal bo'ldi.



2019 yil 7-10 avgust Zafarbek Karimov Kadetlar o'rtasidagi IV Jahon chempionati oltin medal sohibi.

Jahon chempionatining to'rtinchi kuni ham g'alaba bilan boshlandi. -49 kg vazn toifasida O'zbekiston sharafiga himoya qilayotgan Oyatulloh Akramovning 1/16 finaldagi raqibi Kanadalik Ali Hilol bo'ldi. Unda Oyatulloh katta ustunlikka ega bo'ldi va 35:11 hisobida g'alabaga erishdi. Oyatulloh nimchorak finalda Misrlik Muhammad Osama Hussayinga qarshi jang qildi. Afsuski bu bahsda hamyurtimiz 12:33 hisobida yutqazib qo'ydi va musobaqani tark etdi.



**2019 yil 7-10 avgust Kadetlar o'rtasidagi IV
Jahon chempionati. Oyatulloh Akramov**

-37 kg vazn toifasida O'zbekistonlik O'g'iloy Ibragimova 1/16 finalda Britaniyalik Niam Rayanga qarshi dayanga chiqdi. Qiziqarli tarzda o'tgan bahsda O'g'iloy raqibasi ustidan 16:12 hisobida g'alabaga erishdi. O'g'iloy Ibragimova nimchorak finalda Taypeylik Yin Lin Zao bilan uchrashdi. Bahsda katta ustunlikka ega bo'lgan hamyurtimiz 21:7 hisobida zafar quchib chorak finalga yo'l oldi. O'g'iloy chorak finalda Qozog'istonlik Assel Abubakir bilan jang qildi. Afsuski bu bahsda hamyurtimiz 2:4 hisobida jangni boy berdi.



**2019 yil 7-10 avgust Kadetlar o'rtasidagi IV
Jahon chempionati. O'g'iloy Ibragimova**

+59 kg vazn toifasida yurtimiz sharafigini himoya qiladigan Kseniya Smirnova 1/8 finalda Hindistonlik Xiya Sachdeva bilan to'qnash keldi. Katta tashabbusga ega bo'lgan Kseniya 20:5 hisobida g'alaba qozonib chorak finalga chiqdi. Kseniya Smirnova chorak finalda Koreyalik Jang Xyeonji bilan jang qildi. Keskin o'tgan bahsning so'nggi soniyalarda hisob 7:7 edi, biroq Koreyalik sportchining oxirgi zarbasi aniq bo'ldi va Kseniya 7:9 hisobida mag'lub bo'ldi.



**2019 yil 7-10 avgust Kadetlar o'rtasidagi IV
Jahon chempionati. Kseniya Smirnova**

Toshkentda bo'lib o'tgan taekvondochi kadetlar o'rtasidagi Jahon chempionatida O'zbekiston terma jamoasi to'liq tarkibda, 20 nafar sportchi bilan ishtirok etdi.

Taekvondochilarimiz ushbu musobaqada bitta oltin va bitta bronza medalini qo'lga kiritishdi. -41 kg vazn toifasida yurtimiz sharafiga himoya qilgan Zafarbek Karimov barcha raqiblarni mag'lub etib oltin medalga ega chiqdi. Oldingi Jahon chempionatlarida sportchilarimiz hech qachon finalga chiqishmagandi. Shu tariqa Zafarbek kadetlar o'rtasida Jahon chempioni bo'lgan birinchi O'zbekistonlik taekvondochi bo'ldi. -33 kg vazn toifasida hamyurtimiz Muhammadamin Aliyev esa yarim finalga qadar yetib bordi. Afsuski u final Ostonasida bo'lajak Jahon chempioniga mag'lub bo'ldi va yurtimiz hisobiga bronza medalini keltirdi. To'rt nafar taekvondochimiz Mubina Ma'murjonova, Laylo Zayniddinova, O'g'iloy Ibragimova va Kseniya Smirnova Jahon chempionatini chorak finalda to'xtatishga majbur bo'lishdi. 12 nafar sportchimiz 1/8 final, yana ikki taekvondochimiz esa musobaqani 1/16 finalda yakunlashdi.

Bundan tashqari, 8 avgust kuni poytaxtimizdagi "Xalqlar Do'stligi" maydonida "Taekvondo hamma uchun" ("Taekwondo For All") shiori ostidagi fleshmob o'tkazildi. Unda Butunjahon taekvondo federatsiyasi prezidenti Chonvon Choy ham ishtirok etib, dunyo taekvondosi tarixida bunchalik go'zal va bunday yirik fleshmob hali bo'lmaganini alohida ta'kidlab o'tdi. Shu kuni fleshmobda 2000dan ziyod taekvondochilar ishtirok etishdi.



2019 yil 8-avgust. Toshkentda "Taekvondo hamma uchun" ("TaekwondoForAll") shiori ostidagi Fleshmob.

Navbatdagi yirik musobaqalardan 2019 yil 13-15 sentyabr kunlari Yaponiyada taekvondo bo'yicha Chiba-2019 GRAND PRIX bo'lib o'tdi. Ushbu nufuzli musobaqada O'zbekistonlik uch nafar taekvondochi ishtirok etishdi.

Chiba Gran-prisida Svetlana Osipova g'alaba bilan boshlab berdi. Osipova 1/16 finalda Serbiyalik Ana Tepavatsga qarshi dayanga chiqdi va 4:0 hisobida g'alabaga erishdi. Navbatdagi jangida Osipova 1/8 finalda Meksikalik Briseida Akostaga qarshi jang qildi va 20:6 hisobida g'alabaga erishdi. Osipova chorakfinalda 2012 yil Londonda o'tgan Olimpiada o'yinlarida oltin medalni qo'lga kiritgan Serbiyalik Militsa Mandichga qarshi dayanga chiqdi. raqibi Olimpiada reytingida 6-o'rinda borayotgan Mandichga qarshi jang juda ham qiziqarli kechdi. So'nggi soniyalarda hisob 4:4 edi, bahs tugashiga 1 soniya qolganida hamyurtimiz bir ochko qo'lga kiritib yarim final yo'llanmasiga ega chiqdi. Osipova yarim finalda 2016 yilgi Olimpiada chempioni Xitoylik Zeng Shuyinga qarshi dayanga chiqdi. Afsuski bu jangda xitoylik taekvondochi 3:0 hisobida g'alaba qozonib finalga chiqdi. Shu tariqa Svetlana Osipova Chibadagi Gran-prida bronza medalini qo'lga kiritdi.



2019 yil 13-15 sentyabr. Yaponiyada taekvondo bo'yicha Chiba-2019 GRAND PRIX. Svetlana Osipova

Navbatdagi sportchimiz Nigora Tursunqulova ham qur'a natijalariga ko'ra 1/16 finalda Kosta-Rikalik Ketrin Alvaradoga qarshi dayanga chiqdi. Qiziqarli o'tgan bahsda O'zbekistonlik

sportchi 4:1 hisobida g'alaba qozondi. Tursunqulova nimchorak finalda Koreyalik Kim Jan Di bilan to'qnash keldi. Dastlabki ikki raundda 0:0 hisobi qayd etildi. So'nggi raundda esa Nigora bir ochko qo'lga kiritdi va chorak finalga yo'llanmaga ega chiqdi. Tursunqulova yarim finalga chiqish uchun Britaniyalik Loren Uilyamsga qarshi jang qildi. Qiziqarli va kurashlarga boy bo'lgan bahsda O'zbekistonlik taekvondochi 17:8 hisobida g'alabaga erishdi. Tursunqulova yarim finalda Frantsiyalik Magda Vit-Enenga qarshi dayanga chiqdi. Hamyurtimiz 3:0 hisobida oldinda edi, biroq 3-raundning so'nggi soniyalarida raqib hisobni tenglashtirdi. To'rtinchi raund tugashiga 3 soniya qolganida Frantsiyalik taekvondochi 1 ochko oldi va finalga chiqdi. Shu tariqa Nigora Tursunqulova Chibadagi Jahon Gran-prisida bronza medaliga ega chiqdi.



2019 yil 13-15 sentyabr. Yaponiyada taekvondo bo'yicha Chiba-2019 GRAND PRIX. Nigora Tursunqulova

Navbatdagi sportchimiz Nikita Rafalovich Qur'a natijalariga ko'ra 5-raqamda saralangan 1/16 finalda 28-raqamda saralangan Taypeilik Liu Vey Tingga qarshi dayanga chiqdi. Bu jangda 10:5 hisobida g'olib bo'ldi. Nimchorak finalda Britaniyalik Damon Sansum bilan jang qildi. Uchta raundda 4:4 hisobi qayd etilgach g'olibni aniqlash uchun 4-raund o'tkazildi. Unda Rafalovich 2 ochko oldi va keyingi bosqichga yo'l oldi. Chorak finalda Rossiyalik Anton Kotkov bilan to'qnash keldi. Afsuski ushbu jangda Nikita 6:10 hisobida yutqazib qo'ydi va yarim finalga chiqa olmadi.



2019 yil 13-15 sentyabr. Yaponiyada taekvondo bo'yicha Chiba-2019 GRAND PRIX. Nikita Rafalovich

Navbatdagi xalqaro musobaqa 2019 yil 28-29 sentabr Moskva shahrida taekvondo bo'yicha G-1 klassidagi "Russia Open" reyting turniri bo'lib o'tdi. "Russia Open" turnirining dastlabki kuni taekvondochilarimiz uchun muvaffaqiyatli keldi. O'zbekiston sportchilari 4ta oltinni qo'lga kiritdilar. Bular -62 kg vazn toifasida Feruza Sadikova, -67 kg vazn toifasida Nigora Tursunqulova, +73 kg vazn toifasida Svetlana Osipova, -68 kg vazn toifasida Jasurbek Jaysunovlar bo'ldilar.



2019 yil 28-29 sentabr. Moskva taekvondo bo'yicha G-1 klassidagi "Russia Open" oltin medali sohiblari.

"Russia Open" turnirida O'zbekiston sharafiga 15 nafar taekvondochi himoya qildi. Quvonarlisi ulardan 8 nafari musobaqada medallarni qo'lga kiritdi.

Musobaqa davomida Feruza Sadikova, Nigora Tursunqulova, Svetlana Osipova, Jasurbek Jaysunov va Nikita Rafalovichga teng keladigan raqib topilmadi. Charos Qayumova hamda Ozoda Sobirjonova faqatgina finalda imkoniyatni boy berishdi xolos. Madinabonu Mannopova esa musobaqada yarim finalga qadar yetib bordi. Shu tariqa taekvondochilarimiz 5ta oltin, 2ta kumush va 1ta bronza medaliga ega chiqishdi. Bu orqali sportchilarimiz O'zbekistonda taekvondo jadal sur'atlarda rivojlanib borayotganini, ko'plab mahoratli yoshlar yetishib chiqayotganini yana bir bor isbotlashdi.



2019 yil 28-29 sentabr. Moskva taekvondo bo'yicha G-1 klassidagi "Russia Open" ishtirokchilari.

Prezidentimizning qarorlariga binoan 2020 yilgi Olimpiada o'yinlariga munosib tayyorgarlik ko'rish maqsadida O'zbekiston taekvondo WT assotsiatsiyasi Koreyalik tajribali mutaxassis bilan shartnoma tuzdi. Janubiy Koreyalik murabbiy Kim Jin Yung O'zbekiston taekvondo terma jamoasida ishladi. Kim Jin Yung 1981 yil Janubiy Koreyada tug'ilgan. 2000-2007 yillarda Kungxi

Universitetida, 2004-2006 yillarda Vusok Universitetida tahsil olgan. 2018 yil Kungxi Universitetida fan nomzodi bo'lgan. Shu kunga qadar "Samsung S1" (Janubiy Koreya), "Suvon Sitixoll" (Janubiy Koreya), Sangdji Universitetida taekvondo bo'yicha instruktor, Yedju Universitetida instruktor, 2017 yil Global sports bosh direktori va Nazarin universiteti taekvondo terma jamoasi bosh murabbiyi sifatida ishlagan. Kim Jin Yung taekvondo 6-dan qora belbog' sohibi. Taekvondo hakami va litsenziyadan o'tgan instruktor hisoblanardi. Sportchilik vaqtida Janubiy Koreya chempioni, Koreya milliy o'yinlari musobaqada 1-o'rinni olgan, AQSh Boston Universitetlararo Jahon chempionatida 3-o'rinni olgan. Ispaniyada Ochiq Jahon chempionatida chempion bo'lgan. 2010 yil Butunjahon Taekvondo Federatsiyasi sertifikatini bilan taqdirlangan.



Oldinda kata musobaqalar turgandi va jamoamiz ushbu musobaqalarga munosib tayyorlandilar.

18-20 oktyabr kunlari Bolgariyada taekvondo bo'yicha Sofiya-2019 Jahon Gran-prisi bo'lib o'tdi. 2019 yilgi hisob bo'yicha uchinchi Jahon Gran-prisiga Bolgariya poytaxti Sofiya shahri mezbonlik qildi. Jahon Gran-prisi tarixda ilk bor Bolgariyada o'tkazildi. "Sofiya ajoyib mezbon bo'la olishiga ishonchim komil,

Butunjahon Taekvondo assotsiatsiyasi musobaqani sabrsizlik bilan kutmoqda. 2020 yilgi Olimpiada bahslariga vaqt oz qolmoqda, shu bois bu Gran-prida ajoyib bahslar bo'lishini kutayapmiz", - dedi Butunjahon Taekvondo assotsiatsiyasi rahbari Chongvun Choy.

Sofiya Gran-prisining birinchi kunida Charos Qayumova birinchi bosqichda imkoniyatni boy berib qo'ydi. Nigora Tursunqulova esa musobaqani g'alaba bilan boshlab berdi. Nigora Tursunqulova 1/16 Gretsiyalik Atanasiya Mitsopuluga qarshi dayanga chiqdi. Hamyurtimizning katta ustunligi ostida o'tgan bahsda 14:9 hisobi qayd etildi va nimchorak finalga chiqdi. Bu orada Dmitriy Shokin kutilmaganda imkoniyatni boy berdi. Svetlana Osipova 1/16 finalda Avstriyalik Marine Yaxlga qarshi dayanga chiqdi. Qiziqarli kechgan bahsda Osipova 6:2 hisobida g'alaba qozondi va keyingi bosqichga yo'l oldi. Keskin tarzda shiddatli o'tayotgan musobaqada Nigora Tursunqulova nimchorak finalda Xorvatiyalik Mateya Yelichga hech qanday imkoniyat qoldirmadi va 18:8 hisobida g'alabaga erishdi. Osipovaning janglari ketma ket davom etdi va nimchorak finalda Britaniyalik Byanka Uolkdenga jangni boy berib qo'ydi. Osipova kabi Tursunkulova ham chorak finalda Britaniyalik Loren Uilyams bilan to'qnash keldi. Afsuski tajribali Uilyams Nigora ustidan g'alaba qozondi.

Yana bir sportchimiz Madinabonu Mannopova Jahon Gran-prisidagi ilk jangini o'tkazdi. 18 yoshli sportchimizga tajribali Xitoylik Yuntao Venren raqiblik qildi. Keskin kurashlarga boy o'tgan bahsda Mannopovaga birozgina tajriba yetishmadi va jangni boy berdi. Hamyurtlarimiz ushbu musobaqasida natijaga erisha olmadilar.

2019 yil 18 oktyabr kuni Xitoyning Uxan shahrida VII Butunjahon armiya o'yinlariga start berildi. Dunyoning 136dan ortiq mamlakatidan kelgan sportchilar 27ta sport turi bo'yicha kurash olib borishdi. Ushbu musobaqada taekvondo

bo'yicha O'zbekiston terma jamoasi 16 nafar sportchi bilan qatnashdi. Taekvondo bahslari 23-26 oktyabr kunlari bo'lib o'tdi.

Musobaqaning birinchi kunida -49 kg vazn toifasida yurtimiz sharafiga himoya qilgan Madinabonu Mannopova musobaqani chorak finaldan boshladi. Uning birinchi raqibi Xitoylik Zaoyi Li bo'ldi. Mazkur bahsda Mannopova 9:7 hisobida g'alabaga erishib yarim finalga chiqdi. Yarim finalda Germaniyalik Ela Aydinni 11:9 hisobida mag'lubiyatga uchratdi.

Madinabonu Mannopova Butunjahon armiya o'yinlarida oltin medalini qo'lga kiritdi. Finalda Misrlik Abdelsalam Nur mag'lub etildi va ham yurtimiz musobaqada chempionlikni qo'lga kiritdi.

Musobaqadagi ta'surotlar haqida intervyusida Madinabonu shunday dedi. "Harbiylar o'rtasidagi musobaqada ilk bor ishtirok etdim. Bu musobaqaga Jahonning eng kuchli sportchilari yig'ilgan, raqobat juda kuchli bo'ldi. Bu turnir G2 turkumiga mansub bo'lib, birinchi o'rinni olgan sportchiga 20 reyting bali taqdim etildi. Oltin medalni qo'lga kiritib Olimpiada reytingimni yaxshilashga muvaffaq bo'ldim.

Chorak finaldagi Xitoylik raqibam juda ham tajribali edi. U bilan bahs 4ta raund davom etdi. Hal qiluvchi raundda oltin ochkoni birinchi bo'lib men oldim va yarim finalga chiqdim. Finalga chiqish uchun Germaniyalik taekvondochi to'sig'idan o'tishimga to'g'ri keldi. Uni 11:9 hisobida mag'lub etdim.

Finalda o'zimdano ko'ra anchagina tajribali bo'lgan misrlik taekvondochiga qarshi dayanga chiqdim. Bahs juda ham ehtiyotkor tarzda o'tdi hamda 4ta raundan keyin hisob 0:0 edi. Bunday holatda yon hakamlar bahsda faolroq bo'lan taekvondochini g'olib deb topishadi. Shukurki oltin medalga ega chiqdim va Uxanda bayrog'imizni xilpiratish nasib etdi" –deya o'zining samimiy fikrlarini bildirdi.



**2019 yli 23-26 oktabr. Butunjahon armiya o'yinlari
oltin medal sohibasi Madinabonu Mannopova**

+87 kg vazn toifasida Dmitriy Shokin musobaqani nimchorak finaldan boshladi va Ekvadorlik Fayardo Xuakonga hech qanday imkoniyat qoldirmadi - 21:1. Hisobida g'alaba qozondi. Chorak finalda esa Shokinga Xitoylik Jian Tian bilan bo'libo'tgan bahsda biroz omad yetishmadi - 22:24. Hisobi bilan jangni boy berdi.

-73 kg vazn toifasida dayanga chiqqan Maftuna Ergasheva ham musobaqani chorak finaldan boshladi. Afsuski Ergasheva xitoylik Li Chenga qarshi bahsda jangni boy berdi. Bronza medali uchun jangda Italiyalik Maristella Smiralyaga qarshi bahs olib borgan Ergashevaga omad yetishmadi - 7:10 hisobida jangni boy berdi.



2019 yili 23-26 oktabr. Butunjahon armiya o'yinlari.

Maftuna Ergasheva

Navbatdagi sportchimiz -58 kg vazn toifasida O'zbekistonlik Ulug'bek Rashitov musobaqani Germaniyalik Sezgin Abdullatifni 33:0 hisobida mag'lub etib boshladi. Nimchorak finalda esa Mo'g'ulistonlik Molom Tumenbayar 24:15 hisobida taslim etildi. Chorak finalda Koreyalik Kim Daeikni 28:11 hisobida mag'lub etgan Rashitov yarim finalga chiqdi.

Yarim finalda Italiyalik Vito Dell Akila bilan to'qnash kelgan hamyurtimiz 13:12 hisobida g'alabaga erishib finalga yo'l oldi. Musobaqa finalida Xitoylik Liang Yushuaiga qarshi dayanga chiqdi. Qiziqarli o'tgan bahsda hamyurtimiz 17:15 g'alaba qozondi va oltin medalni qo'lga kiritdi.



2019 yli 23-26 oktabr. Butunjahon armiya o'yinlari oltin medal sohibi Ulug'bek Rashidov

+73 kg vazn toifasida yurtimiz sharafigini himoya qiluvchi Svetlana Osipova chorak finalda Italiyalik Laura Jiakomini ustidan 9:2 hisobida g'alabaga erishdi. Yarim finalda Rossiyalik Olga Muzichkani 13:1 hisobida dog'da qoldirdi. Svetlana Osipova finalda Frantsiyalik Solene Avoulette bilan jang qildi. Keskin kurashlarga boy bahsda ham yurtimiz 8:3 hisobida g'alaba qozondi va musobaqa chempioniga aylandi.



**2019 yli 23-26 oktabr. Butunjahon armiya o'yinlari
oltin medal sohibasi Svetlana Osipova**

-68 kg vazn toifasida O'zbekistonlik Sardor Toirov musobaqani 1/16 finaldan boshladi. Bu bosqichda u Urugvaylik Federiko Gonsales Gomezni taslim qildi - 21:4. Navbatdagi bosqichda keniyalik Edkin Kiptu 38:4 hisobida mag'lub etildi. Chorak finalda Toirovga Rossiyalik Vyacheslav Minin raqiblik qildi. Bu safar ham Sardor g'alabaga erishdi - 8:3. Yarim finalda Bolgariyalik Vladimir Dalakliyevga qarshi bahs keskin o'tdi va 26:23 hisobida Toirovning g'alabasi bilan tugadi. Musobaqa finalida Braziliyalik Edival Markesga qarshi jang qildi va 11:14 hisobida mag'lub bo'ldi va kumush medali nasib etdi.



2019 yili 23-26 oktabr. Butunjahon armiya o'yinlari
Kumush medali sohibi Sardor Toirov

53 kg vazn toifasida Charos Qayumova 1/8 nimchorak finalda Misrlik Maram Izatni 21:0 hisobida tor-mor etdi. Chorak finalda Serbiyalik Tiyana Bogdanovich 22:19 hisobida mag'lub etildi. Yarim finalda Braziliyalik Leonor Saraviyani taslim qildi. Hisob - 23:5. Charos Qayumova finalda Germaniyalik Nadya Nutxaft Roxana ustidan 29:15 hisobida g'alabaga erishib oltin medalni qo'lga kiritdi.



**2019 yli 23-26 oktabr. Butunjahon armiya o'yinlari
oltin medali sohibasi Charos Qayumova**

-62 kg vazn toifasida hamyurtimiz Feruza Sadikova musobaqani chorak finaldan boshladi. Bu bosqichda Rossiyalik Yuli Turutina 8:5 hisobida mag'lub etildi. Yarim finalda esa Feruza Xitoylik Jiye Song bilan to'qnash keldi. Afsuski uchinchi raundda omad hamyurtimizdan yuz o'girdi va Sadikova final ostonasida imkoniyatni boy berib qo'ydi. Feruza bronza medali uchun jangda Dominikanlik Anduxar Jenesisni 46:7 hisobida taslim qildi va bronza medalini qo'lga kiritdi.

Feruza Sadikova: "Fujayra Open"da yana medal olishga harakat qilaman".

O'zbekiston taekvondo terma jamoasi a'zosi Feruza Sadikova ayni paytda "Fujayra Open" musobaqasiga tayyorgarlik ko'rmqda. Biz sportchimizning taekvondoga kirib kelishi hamda bo'lajak musobaqa haqidagi fikrlari bilan qiziqdik.

"Taekvondoga ilk qadamlarimni 2015 yil, 13 yoshimda tashlaganman. O'z tengdoshlarimning ushbu sport turi bilan shug'ullanishlarini tomosha qilib, taekvondoga qiziqishim uyg'ongan. O'shandayoq taekvondo mening kelajagim ekanini his qilganman va ikkilanmasdan mashg'ulotlarni boshlaganman. Pahlavon aka Sobirov mening birinchi murabbiyim hisoblanadilar. Ular menga ko'p narsani o'rgatganlar. Hozirga qadar kamchiliklarini aytib, xatolarim ustida ishlashimga yordam berib keladilar.

Ayni paytda kelajakdagi musobaqalarga tayyorgarlik ko'rish uchun Yangiobodda yig'in olib borayapmiz. "Mashqda qiyin bo'lsa, jangda oson bo'ladi" deb bejizga aytishmagan.

Yanvar oyi oxirida "Fujayra Open" musobaqasi boshlanadi. 2017 yilda ushbu musobaqaning o'smirlar toifasida ishtirok etib, bronza medalini qo'lga kiritgandim. O'sha medal mening faoliyatimdagi ilk tarixiy medal bo'lgan edi. 2018 yilda yoshlar toifasida oltin medalga ega chiqqandim. Bu yil "Fujayra Open"da ilk bor kattalar toifasida ishtirok etaman hamda yana medal olishga harakat qilaman", - deydi Feruza Sadikova.



**2019 yli 23-26 oktabr. Butunjahon armiya
o'yinlari bronza medali sohibasi Feruza Sadikova**

-63 vazn toifasida Niyaz Po'latov ilk bosqichda Qozog'istonlik Islamgali Abuov, so'ngra Xitoylik Xairui Vangni, chorak finalda Eronlik Kamron Mardanipurni mag'lub etdi. Yarim finalda Frantsiyalik Dilan Chellamotoga jangni boy berdiva bronza medali uchun kurash olib bordi. Niyoz Po'latov Rossiyalik Janat Iskakovni 30:0 hisobida tor-mor etdi va bronza medaliga ega chiqdi.



**2019 yli 23-26 oktabr. Butunjahon armiya
o‘yinlari bronza medali sohibi Niyaz Pulatov**

-57 kg vazn toifasida yurtimiz sharafigini himoya qilayotgan Dinoraxon Mamadibragimova chorak finalda AQSh vakilasi Deyvon Lyuisni 2:1 hisobida taslim qildi. Yarim finalda esa Germaniyalik Anna Lena Froyemmingni mag‘lub etdi - 2:1. Dinoraxon Mamadibragimova finalda Rossiyalik Yelena Yevlampevaga qarshi jang qildi. Bu bahsda Dinoraxon mag‘lubiyatga uchradi va musobaqada kumush medalni qo‘lga kiritdi.



**2019 yili 23-26 oktabr. Butunjahon armiya o'yinlari
kumush medali sohibasi Dinoraxon Mamadibragimova**

-67 kg vaznda Nigora Tursunkulova chorak finalda Italiyalik Kristina Gaspani 11:0 hisobida mag'lub etdi. Yarim finalda Rossilik Anastasiya Bakanovani taslim qildi - 18:2. Nigora Tursunkulova finalda Xitoylik Mengyu Zangga qarshi dayanga chiqdi. Afsuski finalda omad xitoylik sportchiga kulib boqdi va Nigora Tursunkulova kumush medalni qo'lga kiritdi



**2019 yli 23-26 oktabr. Butunjahon armiya o'yinlari
kumush medali sohibasi Nigora Tursunkulova**

Musobaqa To'rt kuni davomida taekvondochilarimiz terma jamoamiz hisobiga jami 10ta medalni qo'shib qo'yishdi. Taekvondochilar 4ta oltin, 3ta kumush va 3ta bronza medallarini qo'lga kiritib yurtimiz sharafigini munosib himoya qilishdi. Quvonarli jihati taekvondo musobaqalarida O'zbekiston terma jamoasi umumjamo'a hisobida 1-o'rinni qo'lga kiritdi.



**2019 yili 23-26 oktabr. Butunjahon armiya o‘yinlarida
O‘zbekiston Taekvondo WT milliy terma jamoasi**

2019 yil 1-3 noyabr kunlari Xitoyning Usi shahrida Katta dubulg‘a musobaqasining II ochiq saralash bahslari bo‘lib o‘tdi. Ushbu musobaqada -67 kg vazn toifasida hamyurtimiz Nigora Tursunqulova bu musobaqada yarim finalga qadar yetib bordi. Bronza medali uchun bahsda Tursunqulova g‘alabaga erishdi va Katta dubulg‘a musobaqasi final bosqichiga yo‘llanmani qo‘lga kiritdi.



**2019 yil 1-3 noyabr Katta dubulg'a musobaqasi saralashi.
Nigora Tursunqulova bronza medali sohibasi!**

2019 yil 6-7 dekabr kunlari Rossiyada taekvondo bo'yicha "Moscow Grand-Prix Final" musobaqasi bo'lib o'tdi.

Ushbu nufuzli musobaqada O'zbekistonlik ikki nafar taekvondochi Nikita Rafalovich va Nigora Tursunkulovalar ishtirok etdi.

Musobaqada -80 kg vazn toifasida yurtimiz sharafigini himoya qilgan Nikita Rafalovich bronza medal uchun Misrlik Seif Issaga qarshi jang qildi va 7:5 hisobida g'alaba qozondi. Shu tariqa, Nikita nufuzli musobaqaning bronza medali va Olimpiada uchun qimmatli bo'lgan 28,8 ochkoni o'z hisobiga qo'shib qo'ydi.



**2019 yil 6-7 dekabr kunlari Rossiyada taekvondo
bo'yicha "Moscow Grand-Prix Final" musobaqasi
bronza medali sohibi Nikita Rafalovich**

2020 yil 4-yanvarida Butunjahon taekvondo federatsiyasi WT Tokio Olimpiadasiga yo'llanma beruvchi yakuniy reyting jadvalini e'lon qildi. Quvonarlisi, terma jamoamiz a'zosi Nikita Rafalovichning nomi -80 kilogramm vazn toifasida reyting orqali Tokio Olimpiadasiga yo'llanma olgan taekvondochilar qatorida keltirib o'tildi.

Hamyurtimiz -80 kilogramm vazn toifasida yakuniy jadvalning to'rtinchi pog'onasidan joy olgan. Rafalovich 2 yil davomida o'tgan bahslar mobaynida 306.89 ball to'plashga muvaffaq bo'ldi. Nikita Rafalovich - Tokio Olimpiadasi yo'llanmasini qo'lga kiritdi.

2020 yil yanvar "Fujayra Open". Dastlabki kunda 11ta medal qo'lga kiritilgan.

31 yanvar kuni BAA ning Fujayra amirligida taekvondo bo'yicha an'anaviy "Fujayra Open" musobaqasi start oldi.

Dastlabki kungi bahslarda kadetlar va o'smirlar toifasida jami 15 nafar O'zbekistonlik taekvondochilar janglarda ishtirok etishdi. Quvonarlisi sportchilarimiz 7ta oltin, 2ta kumush va 2ta bronza medallarini qo'lga kiritishdi.

Oltin medal - Madina Shoniyozova (Nazaraliyev Team)

Oltin medal- Azizabonu Salimbayeva (Domrobot Team)

Oltin medal - Javohir Xolmurodov (Nazaraliyev Team)

Oltin medal - Sabina Qahramonova (Nazaraliyev Team)

Oltin medal - Roziya Sharobiddinova (Nazaraliyev Team)

Oltin medal - Samandar Yormuhammadov (Domrabit Team)

Oltin medal - Muhammadali Turg'untoshev (Nazaraliyev Team)

Kumush medal - Behruzbek Isayev (Nazaraliyev Team)

Kumush medal - Muxlisa Alimahmatova (Iqbol Club)

Bronza medal-Madinabonu A'zamova (Mukhammadziyo Team)

Bronza medal - Azizbek Abdujabborov (Nazaraliyev Team)



2020 yil yanvar "Fujayra Open". Dastlabki kunda 11ta medal qo'lga kiritgan sportchilar.

Sportning jadal sur'atlarda rivojlanib borayotgan bir paytda Koronavirus tufayli qoldirilgan musobaqalar haqida.

2020 yilning 24-26 mart kunlari Surxondaryoning Termiz shahrida o'smirlar o'rtasidagi O'zbekiston kubogi musobaqasi

o'tkazilishi kerak edi. Unda 2003-2005 yillarda tug'ilgan o'g'il va qiz bolalar ishtirok etishlari ko'zda tutilgan edi. Biroq koronavirus sababli O'zbekistondagi barcha sport musobaqalari vaqtincha to'xtatildi.

Bundan tashqari 10-11 aprel kunlari Iordaniyaning Amman shahrida Osiyo qit'asidagi litsenzion musobaqa bo'lib o'tishi kerak edi. Mazkur musobaqa 6-7 iyunga qoldirildi.

3-6 mart kunlari Livanning Bayrut shahrida Taekvondo bo'yicha XIV Osiyo chempionati bo'lib o'tishi kerak edi. Musobaqa koronavirus tufayli 13-15 may kunlariga qoldirilgan.

Mashg'ulotlar esa online tarzda uyda bajarildi.

Tokio Olimpiadasining 2021 yilga qoldirilishi bir qator sport turlarida ushbu yil uchun mo'ljallangan jahon chempionatlarining o'tkazilishiga ham ta'sir qilmoqda. Bu hol taekvondo sportini ham chetlab o'tmadi.

Xitoyning Usi shahri 2021 yilning may oyida taekvondo bo'yicha kattalar o'rtasidagi navbatdagi dunyo birinchiligiga mezbonlik qilishi belgilangan edi. Biroq Olimpiadaning yoz fasliga mo'ljallangani bu jahon chempionatining qoldirilishiga sabab bo'lmoqda. Hozircha Butunjahon taekvondo federatsiyasi Usidagi JChni aynan qaysi muddatga ko'chirishi bo'yicha rasmiy xabar bergani yo'q. Bu haqda MOQ xabar berdi.



2020 yil 19-mart O'zbekiston taekvondo assotsiatsiyasi va "Universal" sport saroyida to'liq dezinfektsiya ishlari amalga oshirildi.

Uzoq tanaffusdan so'ng 2021 yil 10-16 mart kunlari Turkiyada an'anaviy "Turkish Open" xalqaro musobaqasi bo'lib o'tdi. Unda O'zbekiston terma jamoasi 17 nafar taekvondochi bilan ishtirok etdib, 8 ta medalni qo'lga kiritdi.



2021 yil 10-16 mart kunlari Turkiyada an'anaviy "Turkish Open" xalqaro musobaqasi chempioni Nigora Tursunkulova.



Takevondochilarimiz o'z raqiblarini bilib olishdi

Tokio Olimpiadasida taekvondo musobaqalariga qur'a tashlash marosimi bo'libo'tdi.

25 iyul kuni Ulug'bek Rashitov dastlabki bosqichda Mali davlati sportchisi Seydu Fofanaga qarshi jang qiladi. Ushbu juftlik g'olibi 1/8 finalda Koreyalik Li Dae Xunga qarshi dayanga chiqadi.

26 iyul kuni Nigora Tursunqulova nimchorak finalda Xitoylik Jang Mengyu bilan to'qnash keladi.

Shu kuni hamyurtimiz Nikita Rafalovich nimchorak finalda Dominikan terma jamoasi a'zosi Moyzes Ernandes bilan jang qiladi.

27 iyulda Svetlana Osipova 1/8 finalda Qozog'istonlik Jansel Deniz bilan bahs olib boradi.



TOKIODA TARIX YANGILANDI! OLTIN MEDAL! ULUG'BEK RASHITOV - CHEMAION!

-68 kg vaznli taekvondochimiz Ulug'bek Rashitov Olimpiya o'yinlarining finalida Britaniyalik Bredli Sidnen qarshi dayanga chiqdi va 34:29 hisobida g'alaba qozondi.

Bu g'alaba orqali taekvondochimiz Olimpiada chempioni bo'ldi. Shunday qilib, O'zbekistonlik taevondochi tarixda ilk bor Olimpiya o'yinlarida OLTIN MEDALga ega chiqdi. Ta'kidlash lozimki, Ulug'bek O'zbek taekvondochilari orasida Olimpiadalarda birinchi bo'lib medal oldi!

O'zbekiston delegatsiyasiga Tokiodagi ilk medalni ham aynan taekvondochi Ulug'bek Rashitov keltirdi!

Olimpiya o'yinlarida Ulug'bek Rashitov Seydu Fofana (Mali), Li Dae Xun (J.Koreya), Mirxashem Hussayni (Eron), Nedzad Xusich (Bosniya va Gertsegovina) va Bredli Sinden (Buyuk Britaniya) kabi taekvondochilarni mag'lub etdi va chempion bo'ldi!

Bugun mamlakatimizda yigirma mingdan ortiq o'g'il-qiz taekvondo WT bilan muntazam shug'ullanmoqda. O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetida ham Taekvondo WT ixtisosligi bo'yicha malakali murabbiylar tayyorlanayotir. Olimpiya zaxiralari kollejlari, ixtisoslashtirilgan bolalar vao'smirlar olimpiya zaxiralari sport maktablaridagi taekvondo bo'limlari, qator sport seksiyalari mahoratli sportchilarni tarbiyalashga xizmat qilmoqda.



**O'zbekiston Taekvondo WTF assotsiatsiyasi rahbariyati,
Taekvondo WTF, karate WKF nazariyasi va uslubiyati
kafedrasiProfessor-o'qituvchilari va talabalari**

O'zbekiston taekvondo WT assotsiatsiyasi rahbariyati mintaqaviy federatsiyalar faoliyatini kuchaytirish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, mashg'ulot va musobaqalarni

zamonaviy talablar darajasida tashkil etish uchun sharoit yaratish, xalqaro maydonda yuksak natijalar ko'rsatishga qodir iste'dodli sportchilar seleksiyasini takomillashtirish bo'yicha keng ko'lamli ishlarni amalga oshirmoqda.

Ayni paytda mamlakatimizda 7700 nafar o'g'il-qiz aynan ushbu sport turiga oshno tutinishgan, shularning 1960 nafari o'smirlar, 4590 nafari kadetlar, 1150 nafari kattalardan iborat. Bugungi kunda hududlarda 181 nafar murabbiy, 65 nafar hakam yoshlarga saboq berib kelmoqda. Ikki nafar xalqaro toifadagi hakam Dmitriy Kim va Ramish Ismatovlar yirik musobaqalarni faol boshqarib kelyapti.



(O'zDJTSU Tekvondo WTF sport zalida mashg'ulot jarayoni)

Shuningdek, bu yerda Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi tomonidan mo'jaz zal qurilib, foydalanishga topshirilish arafasida turibdi. Bu yerda kelajakda mamlakat taekvondosi rivojiga xizmat qiladigan yetuk kadrlar tayyorlanadi. Joriy yilda ushbu inshoot qurib bitkazilib, o'z shug'ullanuvchilari ixtiyoriga topshiriladi. Ayni paytda inshootning asosiy ishlari o'z yakuniga yetib qoldi. Bir so'z bilan aytganda, mamlakatimizda taekvondo WT sporti yuksalish pillapoyalari sari dadil odimlashda davom etmoqda.

ASOSIY ADABIYOTLAR

1. Kim Joong Young. Taekwondo Textbook Poomsae KUKKIWON. Korea 2005.
2. G.B. Abdurasulova, Sh.N. Nuritdinova., S.S. Tajibayev., “Taekwondo nazariyasi va uslubiyati” Darslik. Toshkent “Turon-Iqbol” 2015 y. 563 b.
3. Abdurasulova G.B., Nuritdinova Sh.N., Tajibayev S.S. Raxmatov B.Sh. Taekvondo nazariyasi va uslubiyati”. Darslik. -. Toshkent-2018. - 563 bet.
4. Лим А.В. Фетисова Н.А Организация и проведение соревнований по Таэквондо ВТФ (кёруги). Методическое пособие.г. Т.: 2009 год 28 с.
5. Лигай. Путь к совершенству. Ташкент, «Шарк» 1994 г. 159 с.
6. Ю.М.Бабак, э. Константинова Таэквондо: Методическое пособие Киев: 2010 г. 88 с.

Qo‘shimcha adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining «Jismoniy tarbiya va sport tug‘risida»gi Qonun (yahui taxriri) Toshkent Sh., 2020 yil 24 yanvar.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. - 48 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini taminlash yurt taraqqiyoti va halq faravonligining garovi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruza. 2016 yil 7 dekabr. Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017,- 48 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlili, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - xar bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan

iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yoʻnalishlariga bagʻishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi maʼruza, 2017 yil 14 yanvar. — Toshkent: “Oʻzbekiston”, 2017,— 104 b.

5. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik Oʻzbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bagʻishlangan Oliy Majlis palatalarining qoʻshma majlisidagi nutq. Toshkent: “Oʻzbekiston” NMIU, 2017. - 32 b.

6. Халмухамедов Р.Д. Баэк М.Ж. Латипов А.Х. “Таэквондо пумсе” дарслиги. Ташкент, 2014.

7. Платонов В.Н. Система подготовки спортсменов в олимпийском спорте. Общая теория и практические приложения. Киев, 2004.

Internet saytlari

1. taekvondo.uz/ - Oʻzbekiston Taekvondo (WT) Assotsiyasi
2. <http://www.tkdrussia.ru> – Союз Таэквондо России
3. <http://www.wtf-taekvondo.tv> - **Всемирная Федерация**

Таэквондо

4. <http://tkdvi.ru> – Общественная организация «Ассоциация таэквондо»
5. <http://www.centrvostok.wtf-vao.ru>- International taekvondotournament “Russian open”

Qaydlar uchun

Qaydlar uchun

Qaydlar uchun

Ma'murova Laylo Komil qizi

TAEKVONDO WT SPORTTURIDA TOBLANGAN QAHRAMONLAR

badiiy qo'llanma

Muharrir: S. Abdunabiyeva

Badiiy muharrir: K. Boyxo'jayev

Kompyuterda sahifalovchi: B. Muxtorov

Nashr. lits. AA № 0038.

Bosishga ruxsat etildi: 01.11.2022-yil.

Bichimi 60x84 1/16. Ofset qog'ozi.

“Times New Roman” garniturası.

Shartli b/t 3,5. Nashr hisob t 3,6.

Adadi 50 dona. 61-buyurtma.

“O‘ZKITOBSAVDONASHRIYOTI” nashriyotida tayyorlandi.
100012, Toshkent sh. Sirg‘ali tum. 5-mavzey, Yangi Qo‘yliq, 24.

«DAVR MATBUOT SAVDO» bosmaxonasida chop etildi.
100198, Toshkent, Qo‘yliq 4 mavze, 46.